

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

2026-yil 10-yanvar, shanba,
2 (24.182)-son

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz


**O‘zbek xalq maqoli**

O‘pkadan urgan yel yomon, elidan ayrilgan er yomon

Prezident qaroriga ko‘ra

# KRIMINOGEN VAZIYATI OG‘IR MAHALLALARGA RAHBARLAR BIRIKTIRILADI

Shu yilning 5-yanvar kuni davlatimiz rahbarining “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qaror bilan

a) ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirishni ustuvor vazifa etib belgilagan holda mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta’minlash bo‘yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish orqali jinoyatchilikni keskin kamaytirish;

b) oila-turmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish orqali ularning barvaqt oldini olish bo‘yicha yangi ishlash mexanizmlarini belgilash;

v) har qanday noqonuniy holatlar yuzasidan murojaatlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish tizimini yaratish, bu boradagi faoliyatni bevosita joylarda samarali yo‘lga qo‘yish orqali aholi roziligiga erishish asosiy maqsad va ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Har bir mahallada kriminogen vaziyatga salbiy ta’sir etuvchi omillar bilan ishlashning mahallalar kesimida har choraklik manzilli chora-tadbirlari belgilanadi hamda ularning mahalla – tuman – viloyat darajasida ijrosi uchun bevosita mas’ul rahbarlar biriktirilib, ularning zimmasiga aniq javobgarlik yuklanadi.

Kriminogen vaziyati og‘ir mahallalar – tuman (shahar) hokimlari, prokurorlari hamda ichki ishlar organlari boshliqlari va ularning o‘rinbosarlariga;

besh yildan buyon “qizil” toifada bo‘layotgan mahallalar – Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari boshliqlari, viloyat darajasidagi ichki ishlar organlari rahbarlarining va hokimlarning o‘rinbosarlariga;

uch yildan buyon “qizil” toifada qolayotgan mahallalar – huquq-tartibot idoralarining ta’lim va ilmiy tashkilotlariga;

kriminogen vaziyati eng og‘ir tuman va shaharlar – viloyatlar darajasidagi prokurorlarning va ichki ishlar organlari rahbarlarining birinchi o‘rinbosarlariga;

ayollar jinoyatchiligi, spirtli ichimlik va giyohvandlikka ruju qo‘ygan shaxslar jinoyatchiligi hamda nizoli oilalar salmog‘i eng yuqori bo‘lgan mahallalar – tegishincha viloyatlar darajasidagi oila va xotin-qizlar, sog‘liqni saqlash hamda adliya boshqarmalari boshliqlariga biriktiriladi.

Biriktirilgan mas’ul rahbarlar va muassasalar zimmasiga o‘z hududlarida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish namunasini yaratish, hududiy “yo‘l xaritalari” bilan belgilangan chora-tadbirlarning to‘laqonli amalga oshirilishini ta’minlash hamda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qat’iy shaxsiy javobgarlik yuklanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari har oyda bevosita o‘zlari kamida ikkita kriminogen vaziyati og‘ir va murakkab mahallalarga borgan holda yoshlar, ayollar va ishsizlarga nisbatan belgilangan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish holatini tanqidiy o‘rganadi hamda ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini bartaraf etish bo‘yicha manzilli choralar ko‘radi.

Har oy yakunida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan mahallalarda sodir etilgan ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarning sabablari va ularni keltirib chiqargan omillar tanqidiy muhokama qilinadi va harakatsizlikka yo‘l qo‘ygan ijtimoiy profilaktikaga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga nisbatan choralar ko‘radi.

Respublika mahallalarida mahalliy hokimliklar rahbarligida “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”ni o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Mahallada jinoyatchilikni jilovlash yo‘nalishida mas’ul davlat idoralarining kamida 15 nafar o‘rnak ko‘rsatgan rahbar va xodimlari mahalliy budjet daromadlarining prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mehnatga haq to‘lash fondi (pul ta’minoti)ning bir baravari miqdorda pul mukofoti bilan rag‘batlantirib boriladi.

Tuman (shahar) prokurorlari va ichki ishlar organlari rahbarlariga – aholining huquqbuzarlik haqidagi har qanday murojaatlarini so‘zsiz ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini o‘rganish hamda barcha jinoiy holatlar yuzasidan belgilangan tadbirlar o‘z vaqtida, qonuniy va to‘laqonli amalga oshirilishini tashkil etish bo‘yicha shaxsiy javobgarlik yuklatildi.

Vatan himoyachilari kuni oldidan



# VATAN TINCHLIGI POSBONI

**Vatan sarhadlarini himoya qilish qog‘ozda yozilgan shior emas, balki har bir harbiy xizmatchining doimiy mas’uliyatidir. Bu mas’uliyatni hayotining mazmuniga aylantirgan fidoyi harbiylar borki, ularning faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Markaziy harbiy okrugning Samarqand garnizonida xizmat qilayotgan razvedkachi, III darajali serjant Akbarali Ravshanov ana shunday harbiylardan biri.**

Qahramonimiz 1994-yilda Urgut tumanida tug‘ilgan. 2014-yilda Qashqadaryo viloyatida muddatli harbiy xizmatni o‘tagach, Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi harbiy qismda, keyin Jizzax garnizonida va 2018-yildan buyon Samarqand garnizonidagi harbiy qismda xizmat qilib kelmoqda.

— Harbiy kiyim kiygan inson yurt tinchligi uchun javobgar ekanini doim his qilib yashaydi va bu menga kuch-g‘ayrat, shijoat bag‘ishlaydi, — deydi A.Ravshanov. — 12 yillik faoliyat Vatan oldidagi burch, tajriba, sabr va mas’uliyatni o‘rgatdi. Biz uchun xizmat hushyorlik, jismoniy chidam, tezkor qaror qabul qilish degani. To‘g‘ri, ba’zan charchoq bo‘ladi, ammo Vatan tinchligi haqida o‘ylasang, bu mashaqqatlar unutiladi.

Akbarali Ravshanov xizmati davomida harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘tkazilgan musobaqalarda yutuqlarga erishib kelmoqda. U “Eng ilg‘or guruh komandiri”, “Eng yaxshi granatomyotchi”, “Eng yaxshi pulemyotchi mutaxassis”, shuningdek, Hindistonda o‘tkazilgan xalqaro “Do‘stlik–2” o‘quv-amaliy mashg‘ulot musobaqalari g‘olibi bo‘lgan.

— Inson o‘z mehnati qadrlanayotganini his qilsa, mas’uliyati ham ortadi va yaxshi natijalar ko‘rsatish uchun harakat qiladi, — deydi u. — Aytmoqchi bo‘lganim, xizmat qilish uchun barcha imkoniyatlar bor. Zamonaviy binolar, mashg‘ulot zallari, tibbiy xizmat, kutubxona, o‘quv maydonlari harbiylar ixtiyorida. Erishgan yutuqlarim yaratilgan ana shunday imkoniyatlar natijasidir va shu bilan birga, Vatan tinchligini ishonchli himoya qilish mas’uliyatini yuklaydi.

Akbarali Ravshanovning Vatan himoyasi yo‘lidagi fidokorona xizmatlari e’tirof etilib, 2025-yilda “Jangovar faoliyati uchun” III darajali ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Ayni paytda u Samarqand garnizonida vzvod guruh serjanti lavozimida xizmat olib bormoqda va kasbiy mahorati, intizomi bilan yosh harbiy xizmatchilarga namuna bo‘lib kelmoqda.

**Fazliddin RO‘ZIBOYEV.**

Nigoh

# «Imperialistik sayohat»dan asrasin!

**Yangi yil dunyo miqyosida biroz tahlikali xabarlar bilan boshlandi. Yaxshi xabarlar ko‘p bo‘lgan esa-da, ammo inson botinidagi noxush xabarlarga nisbatan ko‘proq qiziqish va uni xotirasida saqlash bilan bog‘liq jarayonlar ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Yer yuzining turli hududlaridagi zilzila, suv toshqinlari haqidagi xabarlar kishini sergak torttirsa, mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar o‘yga toldiradi. Ayniqsa, Venesueladagi hodisalar dunyo ahlini esankiratib qo‘ydi. Nima bo‘lyapti o‘zi? Bo‘layotgan hodisalar rostmi? Agar rost bo‘lsa, qaysi mezonlarga ko‘ra? Shu kabi savollarni berib ko‘rmagan odam qolmadi. Qolganlar esa kulib qo‘yishdi. Tabiiyki, bu kinoyali kulgi ostida ko‘p gap bor.**

Aslida bitta oilani adolat bilan boshqaraman, desang, qoqilib ketasan ba’zida. Rafiqangga adolat qilsang, onang, yaqinlaring e’tiborsiz qolib ketayotganday tuyuladi. Farzandlaringga ish buyursang, bugungi kun psixologlari ularni do‘stingday ko‘rishni maslahat berishadi. Qarindosh-urug‘laringga vaqt ajratsang, ishing qolib ketadi. Vaqtida dam ol, sayohatga chiq, deydigan maslahatgo‘ylar ko‘zingga baloday ko‘rinadi shunday paytlari. Xullas, maslahatgo‘ylar ko‘p-u, baribir, hammasini o‘zing boshqarishing, rafiqang bilan hisob-kitob qilishing, asosiy mas’uliyatni o‘zingga olishing lozim. Boshqa iloj yo‘q, boshqa yo‘l parokandalikka olib keladi.

Hech e’tibor berganmisiz, hayotingizdagi muammoli vaziyatlarda bir o‘zingiz qolishni ma’qul ko‘rasiz. Yolg‘izlik istaysiz, o‘y-xayollaringizni tartibga keltirasiz, qaerda xato qilganingiz, nimalarda adashganingiz haqida o‘zingizga hisob berasiz. Bu o‘y-xayollardan kuch olib, kimningdir yaxshi daldasi turtki bo‘lib, yana shijoat bilan ishga qaytasiz. Ya’ni, inson qanday holat bo‘lmasin, atrofida nechta maslahatgo‘y bo‘lmasin, avvalo, kuchni o‘zidan topadi. Agar istasa, agar shunga g‘ayrati, shijoati yetsa. Yetmasa...

*(Davomi 2-sahifada)* »»

# Mukofot muborak!

Prezidentimizning 2026-yil 7-yanvardagi “Prokuratura organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, Toyloq tumani prokurorining katta yordamchisi **RAHIMOV O‘ral Tashbulovich “Sodiq xizmatlari uchun”** medali bilan taqdirlandi.

Tenglik

**Keyingi yillarda shahar infratuzilmasida inklyuzivlik elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, ko‘zi ojiz va ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun mo‘ljallangan taktil (sariq rangli, bo‘rtma shaklli qoplamali) yo‘laklari barpo etish urfga aylanmoqda. Bunday yo‘laklar xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilib, harakatlanish jarayonida muhim axborotni yetkazib beradi. Doira shaklidagi bo‘rtmalar yo‘lning tugashi yoki boshlanishini, uziq-uziq chiziqlar esa yo‘lning davom etayotganini bildiradi. Mazkur yo‘laklar ko‘zi ojiz shaxslarning mustaqil harakatlanishi, shahar muhitida erkin ishtirok etishi uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.**

# Yo‘laklar reklama konstruksiyalari

## bilan to‘sib qo‘yilyapti




Biroq kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, muammo faqat yo‘lakni barpo etish bilan hal bo‘lmayapti. Shaharning turli hududlarida ushbu taktil yo‘laklar tadbirkorlik subyektlari tomonidan reklama konstruksiyalari, savdo jihozlari, qutilar, quvurlar va boshqa buyumlar bilan to‘sib qo‘yilgan holatlarga duch kelyapmiz. Oqibatda yo‘lak o‘z vazifasini bajara olmayapti. Bu holatni shunchaki, beparvolik sifatida baholash mumkin emas. Chunki gap qulaylik haqida emas, balki fuqarolarning teng huquqli harakatlanish imkoniyati haqida bormoqda. Taktil yo‘lakdan foydalanayotgan ko‘zi ojiz shaxs yuqorida keltirilgan kutilmagan to‘siqqa duch kelishi nafaqat jismoniy jarohat, balki psixologik ishonchsizlikka ham olib kelishi mumkin. Asosiysi, bunday holatlar ularning mustaqil harakatlanishdan voz kechishiga sabab bo‘ladi.

Xo‘sh, nega bu holat takrorlanmoqda? Birinchidan, ayrim tadbirkorlar inklyuziv yo‘lakning vazifasi va ahamiyatini yetarlicha anglamayapti. Ikkinchidan, bu jamiyatda inklyuziv madaniyatning hali to‘liq shakllanmaganini bildiradi. Demak, muammo infratuzilmagina emas, ijtimoiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq.

Inklyuziv muhit faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratiladigan alohida sharoitgina ham emas. U jamiyatning huquqiy va madaniy yetuklik darajasini ko‘rsatuvchi me-zon ham. Bu borada O‘zbekiston tomonidan qabul qilingan xalqaro majburiyatlar, jumladan, BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi talablarini eslatish o‘rinli. Mazkur hujjatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mustaqil harakatlanishi va jamoat infratuzilmasidan to‘liq foydalanish huquqi alohida ta’kidlangan. Shu nuqtai nazardan, taktil yo‘laklarni to‘sib qo‘yish nafaqat texnik yoki tashkiliy kamchilik, balki qonun va axloqiy me’yorlarga zid holat sifatida baholanishi lozim.

Inklyuziv madaniyat - tenglik masalasi. Uni ta’minlash esa barchamizning burchimiz hisoblanadi.

**Dildora SAMANDAROVA,**
**Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi.**

**Istiqbol**

# 2026-yilgi viloyat mahalliy budjeti

## qaysi sohalarga qancha mablag‘ ajratiladi?



**2025-yilning 27-oktabrida “2026-yilga mo‘ljallangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti” loyihasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda Prezidentimiz tomonidan kelgusi yilda mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashdagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.**

2026-yil uchun soliq siyosatining izchilligi va barqarorligini ta’minlash, tadbirkorlar uchun ishonchli biznes muhitini shakllantirish maqsadida Prezidentimiz topshiriqlariga muvofiq, asosiy soliq turlari bo‘yicha soliq stavkalari o‘zgarishsiz qoldirildi. Xususan, foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 12 foiz, ijtimoiy soliq 12 foiz (budjet tashkilotlari uchun 25 foiz), aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy stavkasi 4 foiz, qo‘shilgan qiymat solig‘i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida saqlab qolindi.

*Soliq siyosatida ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlar hamda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun viloyat budjeti mahalliy budjet daromadlari prognozi 7,2 trillion so‘mga belgilandi.*

Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar mehnatga haq to‘lash jamg‘armasining o‘sishi, ish o‘rinlarining legalizatsiya qilish hisobiga 3,1 trillion so‘m bo‘lishi yoki 115 foizga o‘sishi, foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 622,2 milliard so‘m bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va mahalliy budjetlar daromadlarini ko‘paytirish maqsadida 2026-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushadigan daromadlarning viloyat budjetiga 20 foizini o‘tkazish ko‘zda tutilmoqda. Buning natijasida mahalliy budjetlar ixtiyorida qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumidan 309,7 milliard so‘m mablag‘ qolishi kutilmoqda. Bunda mahalliy budjetlarga o‘tkazilgan qismidan hududlarning xarajatlariga qarab 5 foizdan 45 foizgacha tuman va shaharlar budjetlariga yo‘naltiriladi.

*Mahalliy budjet xarajatlari 2026-yil uchun 8,9 trillion so‘m miqdorida rejalashtirildi. Shundan, viloyatning viloyat budjeti xarajatlari 6,3 trillion so‘mni, tuman (shahar)lar budjet xarajatlari 2,6 trillion so‘mni tashkil etadi. Bunda, mahalliy budjet xarajatlarining 63 foizi yoki 5,6 trillion so‘mi ijtimoiy soha xarajatlariga yo‘naltirilmoqda.*

Prezidentimiz tomonidan maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim dasturlarini amaliyotga joriy etish va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, joriy yilda ta’lim sohasiga 1,8 trillion so‘m yoki jami mahalliy budjet xarajatlarining 20 foizi yo‘naltirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasi uchun 474,3 milliard so‘m yoki o‘tgan yil tasdiqlangan rejaga nisbatan 137,2 milliard so‘mga ko‘p mablag‘ yo‘naltirilishi ko‘zda tutilmoqda. 2026-yilda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolalarni ovqatlantirish xarajatlariga 349,7 milliard so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan 67 foiz ko‘p mablag‘ ajratiladi.

*Umumiy o‘rta ta’lim sohasi uchun 792,3 milliard so‘m yoki 2025-yilga nisbatan 84,3 milliard so‘mga ko‘p mablag‘ rejalashtirildi.*

Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim uchun 507,9 milliard so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan 56 foiz ko‘p mablag‘ ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan 9 ta akademik litseyni moliyalashtirish viloyat mahalliy budjetiga o‘tkazildi.

*Bu yil sog‘liqni saqlash sohasiga 3,3 trillion so‘m yoki 2025-yilga nisbatan 218 milliard so‘m ko‘p mablag‘ yo‘naltiriladi.*

Prezidentimizning 2025-yil 3-noyabrdagi “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni tayinlash va to‘lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, joriy yildan ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqasini hamda 1-iyulidan vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi orqali to‘lab berilishi belgilandi.

*2026-yilda mahalliy budjetga “Tashabbusli budjet” dasturi uchun 546 milliard so‘m mablag‘ ajratilmoqda.*
*Bundan tashqari, respublika budjetida loyihalarni aholi va davlat o‘rtasida sherikchilik asosida “birgalikda moliyalashtirish” amaliyoti uchun mablag‘lar nazarda tutilmoqda.*
*Xususan, “birgalikda moliyalashtirish” amaliyoti doirasida agar fuqarolar loyiha qiymatining 50 foizini ixtiyoriy ravishda moliyalashtirsa, qolgan 50 foiz qismi respublika budjetidan qoplab beriladi.*

Joriy yilda “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman va shahar” maqomi berilgan tumanlarni hamda har bir “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahallalar”ni rivojlantirish uchun 470 milliard so‘m ajratiladi. Masalan, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Payariq tumanlari 100 milliard so‘mdan va Bulung‘ur tumaniga 30 milliard so‘m, 14 hududdagi 2 tadan mahallaga 5 milliard so‘mdan(140 milliard so‘m) ko‘zda tutilgan. Shuningdek, tuman va shaharlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi “drayver” loyihalar uchun zarur infratuzilmani yaratishga 150 milliard so‘m mablag‘ ko‘zda tutildi.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi uchun 1,8 trillion so‘m rejalashtirilmoqda.

2025-yilda 11 tuman(shahar) transfert oluvchilar safidan chiqirilgan bo‘lsa, 2026-yilda yana 5 ta tuman transfert oluvchilar safidan chiqarilishi ko‘zda tutilmoqda hamda viloyatdagi barcha shahar va tumanlar to‘liq transfert oluvchilar safidan chiqariladi.

Prezidentimizning “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, mahalliy budjet daromadlarini oshirish maqsadida mahalliy budjetlarga kelib tushadigan QQS, foyda solig‘i, davlat boji, jarima va yig‘imlardan tumanga ajratmalar me’yorlari belgilandi (MRI to‘laydigan soliqlar hamda donor tumanlar bundan mustasno).

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im to‘liq tumanga o‘tkaziladi hamda tuman kengashiga yig‘imning cheklangan stavkasini 20 foizgacha oshirish vakolati berildi.

*Mahalliy budjet qo‘shimcha manbalarini oshirish uchun respublika budjetidan mahalliy budjetga o‘tkazib berilishi ko‘zda tutilgan daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 50 foizi viloyat budjetiga, qolgan 50 foizi tuman(shahar)larning aholi sonidan kelib chiqib taqsimlanishi belgilandi.*

Misol uchun, 2025-yil 9 oyda QQSning rejadan ortiqcha tushgan tushum hisobidan viloyatda 17,5 milliard so‘m o‘tkazib berilgan. 50 foizini tumanga qaytarsak, tuman hokimlari ixtiyorida qariyb 8,8 milliard so‘m qoladi. O‘rtacha bir tuman uchun 500 million so‘m qo‘shimcha manba shakllanadi.

Bulardan tashqari, tuman (shahar) hokimliklariga bo‘sh turgan ijtimoiy soha obyektlari faoliyat turini o‘zgartirmaslik sharti bilan DXShga berish hamda davlat sherigi sifatida ishtirok etish vakolatlari berildi.

Mahalliy hokimliklar huzuridagi jamg‘armalar mablag‘larini depozitga qo‘yishga ruxsat berilmoqda hamda olingan daromadlar “Obod qishloq” va “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalariga yo‘naltiriladi.

Obodonlashtirish boshqarmalarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida ularga issiqxonalar tashkil etish, pullik xizmat ko‘rsatish vakolati berildi.

**Botir MIRZAYEV,**
**viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i.**



# «Imperialistik sayohat»dan asrasin!

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Asosiy mavzuimizga, yuqoridagi xalqaro hayotga buning nima daxli bor, dersiz. Keling, oilaboshilikdagi shunday murakkabliklarni bitta tashkilot rahbari misolida ko‘rib chiqsak. Rahbar bo‘lib ish boshlaganingizdanoq atrofingizni tanish-bilishlaringiz, yanayam aniqrog‘i, qarindoshlaringiz o‘rab oladi. Falonchi ukangga ish kerak, pismadonchisiga pul kerak va hokazo. Bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Hali ish boshlamay turib shuncha boshog‘rig‘iga duch kelasiz. Ularning iltimosini bajarmasangiz, yuqoridagi, oila atalmish rishtalaringizga jiddiy putur yetadi, go‘yoki odamgarchilikdan chiqib ketasiz. Bajaray desangiz... O‘sha og‘aynilaringiz yaxshi mutaxassis bo‘lsa-ku, xo‘p-xo‘p, ammo ishni chalabilgichlardan bo‘lsa, rahbarlik obro‘yingiz ham, ishingiz rivoji ham mana shu nuqtada o‘z o‘zanidan chiqib ketadi. Keyin siz ham bor g‘ayratingizu mahoratingizni «o‘g‘irlik»ka, ya’ni korrupsiyaga sarflaysiz. Faqat maqtov aytadigan xodimni yoningizda olib yurasiz, tanqid qilgani ko‘zingizga dushman bo‘lib ko‘rinaveradi.

Bu yerda ham maslahatgo‘ylaringiz ko‘payadi. Biri huzuringizga kirib, zo‘r taklifim bor desa, boshqasi xuddi shu tashabbusning teskarisini qulog‘ingizga quyadi. Adolatning mezoni qaerda axir, deysiz shunday paytlarda! Qaysi taklif umummanfaatini e’tiborga olgan-u, qaysi biri tashabbuskorning manfaatlarini himoya qilar ekan, deya buni aniqlashga intilasiz. Axir rahbar bo‘lgunchayam ozmuncha odamlar bilan ishlamagansiz, ularning fe’lini besh barmog‘ingizday bilib olgan bo‘lishingiz mumkin. Aynan shunday payti umummanfaatiga xizmat qiluvchi taklifni qo‘llab-quvvatlasangiz, taklif beruvchining emas, sizning obro‘yingiz oshadi. Umummanfaati uchun xizmat qiladigan taklifni jamoa bilan hal qilish yo‘lini topa olgan bo‘lsangiz, tasanno! Ammo shu yo‘lni tanlashgacha bo‘lgan jarayon ham bir kunlik emas-da. Chunki jamoada rahbar bitta bo‘lsa-da, umummanfaati haqida gap ketar ekan, uni birgalikda hal qilmasangiz, parokandalik keyin sizning boshingizga tashvish keltiradi.

- Men bu bog‘chaga ishga kelganimda uning abgorligini ko‘rsangiz edi, - deydi uzoq yillar bog‘cha mudirasi bo‘lib ishlagan ayol. – Bu holga kelguncha ozmuncha mehnatim singmadi axir. Butun sog‘ligim, eng navqiron yillarim sarf bo‘ldi bu binolarga. Shu ishlarni qilayotganimda qizim doim yonimda yurdi, endi bog‘cha mudirasi bo‘lishga undanda loyiqroq odam yo‘q-da axir.

> **Ha, ba’zida rahbarlik kursisida bo‘lganida juda namunali ishlagandan so‘ng undan ayrilishni fojia, deb biladigan insonlar ko‘p. Bu faqat bizning mentalitetga xos desangiz, adashasiz. Yo‘l qo‘yib bersangiz, barcha millat va elatlarga, umuman, insoniyatga xos xususiyat bu. Faqat jilovlash, kuchli siyosiy iroda bu nuqtada o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlaydi.**

Yangi yilda dunyo hamjamiyatini lol qoldirgan hodisalarga qaytsak. Bu haqda ommaviy axborot vositalarida har kuni turli xabarlar berib borilmoqda. Ulardan birida shunday deyiladi: *Tramp Floridadagi matbuot anjumanida Marko Rubio, mudofaa vaziri Pit Hegset va Qo‘shma shtab boshliqlari qo‘mitasi raisi Den Keynni ishora qilib, ular o‘tish davrida Venesuelaga mas’ul bo‘lishini bildirdi. U shuningdek, Maduroning o‘rinbosari Delsi Rodriges Rubio bilan gaplashganini va AQSh talablarini bajarishdan «boshqa iloji yo‘q»ligini aytganini da’vo qildi. Rodriges esa Venesuela davlat telekanali orqali chiqish qilib, AQSh harakatlarini keskin tanqid qildi va mamlakat «hech qachon koloniya bo‘lmasligi»ni bildirdi.*

*Respublikachilar orasida ham ehtiyotkor munosabat kuzatildi. Senat razvedka qo‘mitasi raisi Tom Kotton Venesuelada keyingi qadamlar bo‘yicha «ko‘p savollar ochiq qolgani»ni aytdi va hozir mamlakatni Maduro boshqarmayotganini ta’kidladi. Kongressdagi ayrim demokratlar esa bu aralashuvni «imperial sayohat» deb atab, qonun chiqaruvchi hokimiyat Oq uyni nazorat qilishdan bosh tortayotganini tanqid qildi.*

**IMPERIALISTIK SAYOHAT NIMA EKANLIGINI ZUKKO O‘QUVCHI ANGLAB ULGURDI**

Bugun mamlakatimiz kuchli siyosiy iroda ko‘rsatib, nafaqat atrofdagi mamlakatlar, balki bir qancha xorij mamlakatlari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Sababi mamlakatning barcha chegaralarini yopib qo‘yishdan osoni yo‘q. Ochiqlik esa kuchli siyosiy iroda va juda katta jasorat talab etadi. Bugun, 2026-yilda ham bu yo‘ldan qaytganimiz yo‘q. Garchi hayot haqiqati har qanday hamkorlik har bir davlatning o‘z manfaatlariga xizmat qilishi aniq bo‘lsa-da, ammo bunday birlashuvlarsiz rivojlanib bo‘lmaydi. Faqatgina aholini qashshoqlikda qoldiribgina davlatlararo munosabatlardan voz kechish mumkin. Mamlakatimiz rahbari bu yo‘lni tanlamadi. Har qanday vaziyatda yirik loyihalar odamlarning fikri, munosabati bilan amaliyotga tatbiq etib kelindi, hozir ham bu jarayon davom etmoqda. Kichik jamoada umummanfaati uchun jamoaning fikrini hisobga olish qanchalik muhim bo‘lsa, mamlakat miqyosida bu jarayon inchunun lozim.

Ammo ba’zida necha o‘n yillardan beri shakllangan tizim ham bir insonning xatosi bilan katta tushunmovchiliklarni, hatto urushlarni keltirib chiqarishi mumkinligini his qilib turibmiz. Demak, umum fikri bilan bir qatorda mamlakat miqyosidagi Shaxslarning o‘z qarashi, siyosiy pozitsiyasi yirik ko‘lamli hodisa.

Bu hodisa aslida har birimizda, shu jamiyat o‘zgarishi uchun qarashlarimizda aks etishi lozim. Darvoqe, imperialistik sayohat oilangizdagi qarashlarga ta’sir o‘tkazmayaptimi, korxonangizda parokandalikka olib kelmayaptimi, sizning boshqaruvingizdagi tizimda korrupsiyaga yo‘l ochib bermayaptimi? Nima deysiz?

**Gulruh MO‘MINOVA.**

# Eng yaxshilar qancha mukofot oldi?

***Yangi yil bayrami tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida viloyat hokimligi tomonidan kasaba uyushmalari viloyat kengashi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda eng yaxshi bezatilgan hudud, archa, bino, ko‘cha bo‘yicha an’anaviy tanlov o‘tkazildi. Tanlov g‘oliblari 31-dekabr kuni e’lon qilinib, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.***

Tanlov g‘oliblari qancha pul mukofoti olganini bilasizmi?

**“ENG NAMUNALI TUMAN VA SHAHAR”**

**1-o‘rin** – Past Darg‘om tumani (100 million so‘m);
**2-o‘rin** - Payariq tumani (50 million so‘m);
**3-o‘rin** – Ishtixon tumani (25 million so‘m).

* * *

**“ENG CHIROYLI BEZATILGAN ARCHA”**

**1-o‘rin** – viloyat hokimligi huzuridagi obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish departamenti (15 million so‘m);
**2-o‘rin** - Urgut va Samarqand tumanlari (10 million so‘mdan);
**3-o‘rin** – Qo‘shrabot, Bulung‘ur tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahri (5 million so‘mdan).

* * *

**“ENG NAMUNALI KO‘CHA”**

**1-o‘rin** - Samarqand shahar Ko‘ksaroy ko‘chasi (15 million so‘m);
**2-o‘rin** - Toyloq tumani Amir Temur ko‘chasi (10 million so‘m);
**3-o‘rin** - Jomboy tumani Toshkent ko‘chasi (5 million so‘m).

* * *

**“ENG CHIROYLI BINO”**

**1-o‘rin** – Samarqand shahridagi “Movenpik “mehmonxonasi (15 million so‘m);
**2-o‘rin** - Yoshlar ishlari agentligi Paxtachi tumani bo‘limi (10 million so‘m);
**3-o‘rin** - Samarqand shahridagi 52-maktab (5 million so‘m).

* * *

**“ENG CHIROYLI BEZATILGAN TASHKILOT”**

**1-o‘rin** - Payariq tumanidagi 2-maktab (15 million so‘m);
**2-o‘rin** - Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (10 million so‘m);
**3-o‘rin** - Narpay tumani tibbiyot birlashmasi (5 million so‘m).

MCHJ shaklidagi

# "DINAMO PLUS"

## professional futbol klubi direktori lavozimiga

# TANLOV O'TKAZILADI!

**Vakansiya nomi:** Direktor.

**Manzil:** O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 54-uy.

**Oylik maoshi:** Jamiyat shtatlar jadvaliga muvofiq.

**Qo'shimcha ta'minot:** Yengil avtotransport vositasi.

**Ish bandligi:** To'liq bandlik.

**Kimlar hujjat topshirishi mumkin:** Ushbu e'lon talablariga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari.

**Talablar:**

*- yoshi 45 dan 55 yoshgacha;*

*- oliy ma'lumotli bo'lishi;*

*- korporativ boshqaruv tamoyillarini bilishi;*

*- iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;*

*- sport sohasida zamonaviy bilimga va yetarli tajribaga ega bo'lishi.*

**Shaxsiy sifatlari:**

*- barcha jabhalarida yetakchilikni o'zlashtirish qobiliyati;*

*- yuqori darajadagi strategik fikrlash;*

*- yetakchilik fazilatlari va tajribasining mavjudligi;*

*- ijobiy motivatsiya va ishontirish orqali o'zgarishlarni amalga oshirish tajribasi;*

*- javobgarlik, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish qobiliyati, stressga chidamlilik.*

**Taqdim qilinishi kerak bo'lgan hujjatlar:**

*- ishtirokchining shaxsiy varaqasi (obyektivka);*

*- ma'lumoti to'g'risidagi diplom va hujjat nusxalari;*

*- fuqarolik pasportidan nusxa;*

*- jamiyatni rivojlantirish bo'yicha biznes-rejasi;*

*- mehnat daftarchasidan nusxa;*

*- agar mavjud bo'lsa, ilmiy unvonlari, darajalarini tasdiqlovchi hujjat, chop etgan maqolalari, boshqa mutaxassislikka ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar, malaka oshirganligi to'g'risida hujjatlar, davlat mukofotlari mavjudligi to'g'risida ma'lumot, davlat tashkilotlarining tavsiyanomalari;*

*- yuqoridagi talablarga muvofiq tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.*

**Talabgorlarni baholash tartibi:** Tasdiqlangan komissiya tomonidan 5 ish kuni ichida talabgor tomonidan topshirilgan barcha hujjatlar ushbu lavozim talablariga mosligi o'rganib chiqiladi va baholanadi.

Baholash yakunlanganidan so'ng komissiya tomonidan 6 ish kuni ichida mazkur lavozim uchun 3 nafardan oshmaydigan eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ro'yxati shakillantirilib, eng yuqori ball to'plagan nomzodlar bilan suhbat o'tkaziladi.

**Hujjatlarni topshirish tartibi:**

Taqdim etish shakli: Talabgorlar tomonidan e'londa belgilangan talablar doirasida o'zi haqidagi barcha hujjat va ma'lumotlar yopiq (maxsus) konvertlarda taqdim etiladi.

**Manzil:** Samarqand shahri M.Ulug'bek ko'chasi, 54-uy manzili bo'yicha yuborilishi lozim.

**Hujjatlarni qabul qilish muddati:** 2026-yil 23-yanvar soat 17:00 ga qadar.

# Farmon Azizov



Urgutning fidoyi farzandlaridan biri, faol jamoatchi, "Nuroniy" jamg'armasi Urgut tumani bo'limi raisi Farmon Azizov shu yilning 7 yanvar' kuni 75 yoshida vafot etdi.

Farmon Azizovni urgutliklar mohir shifokor, tajribali rahbar sifatida bilishardi, hurmat qilishardi. U hayotining qariyb qirq yilini aholi salomatligini muhofaza qilish, odamlar dardiga malham bo'lishga bag'ishladi.

F.Azizov 1950-yilda Urgut tumani O'ramas qishlog'ida tug'ilgandi. O'rta maktabni bitirgach, Samarqand davlat tibbiyot institutida tahsil oldi, Samarqand shahar 1-klinikasida internaturani o'tagach, uch yil Nurobod tumani markaziy shifoxonasida jarroh, jarrohlik bo'limi boshlig'i bo'lib ishladi.

1981-yilda Urgutga qaytib, tuman markaziy shifoxonasi poliklinkasida jarroh, yiringli jarrohlik bo'limi boshlig'i vazifalarida mehnat qildi. Farmon Azizov nafaqat jarrohlik, balki tibbiyotning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham yetarli bilim va ko'nikmaga ega edi. Shu sababli o'sha paytda mutaxassislar yetishmasligidan, ustozlari tavsiyasi bilan zarurat tug'ilganda goh travmatolog, goh terapevt, goh pediatr vazifalarini ham bajardi.

1990-yilda uni Urgut tumani markaziy shifoxonasi bosh vrachining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari, oradan besh yil o'tib, bosh vrach vazifasiga tayinlashdi. Farmon Azizov 21 yil davomida tuman tibbiyotiga rahbarlik qilib, hududda aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga katta hissa qo'shdi. Bu davrda Urgutda yangi davolash-diagnostika muassasalari tashkil etildi, mavjudlarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Ko'plab shogirdlar tayyorladi.

Farmon Azizov 2016-yildan buyon "Nuroniy" jamg'armasi Urgut tumani bo'limi rahbari sifatida keksa avlod vakillarining jamiyat hayotidagi rolini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yoshlar ta'lim-tarbiyasida nuroniylar boy hayotiy tajribasidan foydalanish borasida ibratli ishlarni amalga oshirdi. Tumanda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, odamlar hayotidagi yangilik va o'zgarishlarning faol targ'ibotchisiga aylandi.

F.Azizovning fidokorona mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib e'tirof etilib, "Do'stlik" ordeni, respublika, viloyat rahbariyatining faxriy yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlangandi.

Faol va jonkuyar inson Farmon Azizovning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etamiz, uning xotirasi urgutliklar qalbida saqlanadi.

**URGUT TUMANI HOKIMLIGI, "NURONIY" JAMG'ARMASI VILOYAT BO'LIMI.**



## PAXTA HAMDA SABZAVOT, POLIZ VA BOSHQA EKINLAR YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi sohasida "E-urug'" axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 166-sonli qaroriga muvofiq "E-urug'" axborot tizimida elektron tanlov o'tkazilishi belgilangan.

Mazkur qarorga asosan 2026-yil paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan sifatli urug'liklarni etishtiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlarini tanlab olish maqsadida joriy yil 15-yanvardan 5-fevralga qadar "E-urug'" axborot tizimi orqali tanlov o'tkazish bo'yicha arizalar qabul qilinadi.

Tanlovda qatnashish shartlari bo'yicha tuman qishloq xo'jaligi bo'limi yoki "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM viloyat boshqarmasiga murojaat qilishingiz mumkin.

**Murojaat uchun telefonlar: +99866-233-78-80, +99891-558-71-92, +99893-334-99-07.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**10-YANVAR**

**Hotam UMUROV** – 1942-yilda Jizzax viloyatida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi.

**Suyun KARIMOV** – 1950-yilda Nurobod tumanidagi Ulus qishlog'ida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi.

**11-YANVAR**

**Tolib MO'MINOV** – (1943-2021) Samarqand shahrida tug'ilgan. Fizik olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

## DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Gadayev G'ayrat Fayzullayevichga (2025-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Saidov Xaitkulga (2002-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Xafizov Avaz Baxronovichga (2023-yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Sharipov Xalim Isayevichga (2025-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Akobirov Xodiga (2021-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Mukumov Xolmurotga (2013-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Abdusalamov Sultanbay Burxanbayevichga (2023-yil 9-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Raxmonov Tolibga (2022-yil 25-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Sultanov Baxtiyar Rustamovichga (2021-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Musulmonov Orzukulga (1991-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Musoyev Isoga (2025-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromov Jamshid Qo'ldoshevich notarial idorasida marhum Xairova Ramilyaga (2025-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromov Jamshid Qo'ldoshevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xasanov Ashir Zayfinovichga (2024-yil 19-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Zakirov Negmatga (2015-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Namazova Imsinga (2017-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Kabilova Matlyubaga (2024-yil 19-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Utamuradova Marxabo Abduraxmanovnaga (2025-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Xaqqulov Abdurazzaq Xolnazarovichga (2023-yil 28-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.**

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Ashurov Abdusamat Usmanovichga (2004-yil 10-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Sodikov Akbar Aliyevichga (2004-yil 15-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Suyarov Nizomjon Musurmonovichga (2025-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.**

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Eshquvvatov Davronga (2019-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Urokov Shaxobidinga (2023-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Achilov Raxmonga (1976-yil 23-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Tuxliyev Latif Toshtemirovichga (2025-yil 18-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.**

* * *

## TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2024-yilda Miyliyev Mardon G'ayrat o'g'liga berilgan QBB-II № 08284 raqamli xizmat guvohnomasi Oqdaryo tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99894-371-01-21.**

* * *

## BEKOR QILINADI

Urgut tumanidagi "Qudrat va kuch 1991" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312177674) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Bizning suhbat

# Maromiylik harakati Samarqand to'ylarida sezilyaptimi?

**Bundan bir asr oldin, ya'ni jadid bobolarimiz to'y va marosimlarni qisqartirish borasida kurashgan, o'z fikr-mulohazalarini o'sha davr gazetalarida yozgan. Hamon ushbu illatga qarshi kurashyapmiz, biroq aholini sog'lom fikrlashga o'rgatish, yillab mashaqqat bilan to'plagan pulini bir kunda sovurib yuborish noto'g'ri ekanini tushuntirish qiyin bo'lyapti. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Xolbek Ko'bayev bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.**

**- Maromiylik, ya'ni to'y va ma'rakalarni qisqartirish haqida chora-tadbirlar dasturi viloyatimizdagi mas'ul idora rahbarlari tomonidan imzolandi. Xo'sh, bu borada joylarda qanday targ'ibot ishlari olib borilyapti?**

- To'ylarni qisqartirish borasida 2019-yilda harakatlar boshlangandi. Pandemiya sababli bu harakat to'xtab qoldi. 2025-yilda maromiylik dasturiga qaytadan kirishildi. Aslida "O'zbek tilining izohli lug'ati"da maromiylik so'zi biror ish, faoliyat yoki jarayonning me'yori, o'lchovi degan ma'nolarni bildiradi. Bu harakat aholi o'rtasida bevosita isrofgarchilikning oldini olish, shukronalik qilish hamda bag'rikenglik fazilatlarini targ'ib etishga qaratilgan dastur sifatida qabul qilinib, butun mamlakat bo'ylab joriy etilmoqda. Oktabr oyining oxiridan boshlab Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Musulmonlar idorasi, "Mahalla" uyushmasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda "Nuroniylar" jamg'armasi birgalikda dabdabali to'y yoki oilaviy marosimlarni ixchamlashtirishga qaratilgan targ'ibot kompaniyasini boshladi. Respublikada ushbu beshta tashkilot rahbarlari qo'shma memorandum imzoladi. Shu asosda viloyatdagi tashkilotlar o'rtasida ham memorandum tuzildi.

Dastur boshlanishidan oldin ham viloyatda to'ylarni qisqartirish bo'yicha harakatlar boshlangandi. Dastlab tajribani Samarqand tumanidan boshladik. Keyingi yillarda Samarqand, Urgut, Toyloq tumanlarida to'ylarni o'tkazish bo'yicha maromiylik degan tushuncha yo'qolib ketgandi. To'y va marosimlarning xarajatlari haddan ziyod oshib, aholiga ko'p qiyinchiliklar olib kelayotgandi. Masalan, Samarqand tumanida o'g'il uylantirishga o'rtacha 300 million so'm mablag' ketar ekan. Aslida eng kam



to'y xarajati 200 million so'mga tushayotgan bo'lsa, bu yog'i 1 milliard so'mgacha nikoh to'yini o'tkazayotganlar borligi achinarli.

2024-yilda viloyatda 31 mingdan ziyod nikohlar qayd qilingan. Agar buni pulga hisoblaydigan bo'lsak, salkam 2 trillionga yaqin mablag' bo'lyapti. Qayta-qayta o'tkazilayotgan marosimlarni birlashtirish orqali sarf-xarajatlarni 2-2,5 baravarga qisqartirish mumkin.

Rivojlangan davlatlardan biri Germaniyada yashash sharoiti bizdan ancha yuqori bo'lsa-da, nikoh to'yiga 50 kishi taklif qilinar ekan. Turkiyada o'rtacha 100-150 kishilik nikoh to'yi o'tkazilarkan. Buning ustiga ularda "shved dasturxoni" qilinib, odamlar ehtiyojiga yarasha oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilib, isrofgarchilikka yo'l qo'yilmaydi. Bizning to'ylarda maromiylikning o'zi yo'q, kamida 400-500 kishilik to'y qilinadi. Ba'zilar umri davomida to'y uchun pul yig'adi, xorijda ishlab kelgan pulini bir kunlik to'yga sarflab yuboradi. Albatta, ko'pchilikning muhojir sifatida chet elga ketishining sababi ham to'y va marosimlarni o'tkazishda.

Yuqorida aytilgan beshlikka chora-tadbirlar rejasi berilgan. Har hafta Samarqand radiokanalida bir tumanning bo'lim rahbari, imomi va boshqa mas'ullar ishtirokida chiqish qilinyapti. Televidenieda "Ma'rifat shu'lasi" ko'rsatuvi tayyorlanib, har oyda bitta tuman misolida to'ylarni ixchamlashtirish borasida aytilyapti. Bundan tashqari, tumanlarda o'tkazilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarining natijasi monitoring qilib borilyapti. Keyingi paytda aholi orasida hashamatli to'y qilish, to'ylardagi salbiy odatlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish holatlari birmuncha kamaydi. Bu ham odamlarning ongida yaxshi tomonga o'zgarishlarning natijasi bo'lsa kerak.

**- Restoran egalari bilan ham to'ylarni qisqartirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilyaptimi? Demoqchi bo'lganim, bundan 2-3 yil avval ham to'ylarni qisqartirish taklifi o'rtaga tashlanganida, to'ylarga kam kishi aytilsa, dasturxon yanada qimmat bo'lishi, to'yxona egalari daromadining kamayishini xohlamayotgani kabi gaplar tarqalgandi.**

- Maromiylikka rioya qilgan holda restoranlarda to'y o'tkazishga avvalo, soliq idoralari ma'lum bir me'yorlarni belgilab berishi kerak. Masalan, stol-stullar soni va sarflanadigan xarajatlar belgilanishi lozim. To'ylarni ixchamlashtirish borasida tumanlarda o'tkazilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlariga to'yxona egalari ham taklif qilinyapti. Ayni kunlarda 16 ta tuman (shahar)da bu narsa aniq yo'lga qo'yildi, deb aytolmayman. Misol uchun, Qo'shrabot tumanida ixcham to'y o'tkazish yo'lga qo'yildi. Shu sababli Qo'shrabotda katta to'y qilmoqchi bo'lganlar boshqa tumanda to'yini o'tkazishni rejalashtirayotganini eshitdim. Endi bu ishlar boshlanishi albatta, boshida qiyin bo'ladi. Targ'ibot-tashviqot ishlarimizning keyingi bosqichida choralar qattiqroq bo'lishi mumkin. "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 1921-moddasida to'y va marosim qiluvchilarga ham, to'yxona egalariga ham javobgarlik belgilangan. To'y egasiga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari, to'yxona egasiga 30 baravari miqdorida jarima belgilangan. Bu holat bir yil davomida yana qaytarilsa, to'yxona egasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarimaga tortiladi. Bu yigirma milliondan ortiq mablag', degani. Buning nazorati to'xtovsiz olib boriladigan bo'lsa, natijaga erishsak bo'ladi.

**- Samarqand tumanida avj olgan dabdabali to'ylar haqiqatda ham ixchamlashdimi?**

- Samarqand tumani mahallalari bilan gaplashyapmiz. Masalan, tumanning Chorshanba mahallasida maqtovga arzigulik ishlar bo'lyapti. Yaqinda mahallada to'y bo'lgan, unga 200 ga yaqin kishi taklif etilib, ortiqcha sarf-xarajatga yo'l qo'yilmagan. To'y egasi to'yga atagan puliga o'g'liga mashina olib beribdi, u shu bilan tirikchilik o'tkazyapti. Shuningdek, mahallada har bir marosimga ketadigan mahsulotlarning tannarxi chiqarilgan hamda qatnashadigan odamlarning soni ham aniq ko'rsatilgan. Masalan, nikoh to'yiga qancha, fotiha to'yiga qancha odam borishi belgilangan. Chorshanba mahallasida amalga oshirilayotgan ishlarni viloyatimiz bo'yicha namuna sifatida ko'rsatsak bo'ladi.

**- Pandemiya davrida odamlar 30 kishilik to'yga ham rozi bo'lishdi. Nega yana to'y-marosimlar kundan-kunga avj olyapti? Bu odamlarning yashash tarzi yaxshilanayotganidan darakmi yoki...?**

- Agar aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazilsa, to'y qiladigan odamlarning sakson foizi dabdabali to'y qilishga qarshiligini bildiradi. Kimdir ota-ona orzusi deb, kimdir o'g'il yoki qizining orzusi deb dabdabali to'y qiladi. Aholining asosiy qismi katta to'y o'tkazishga sharoiti bo'lmasa-da, odamlar nima deydi, tarzida yo'l tutadi. Aslida odam o'zi uchun, farzandlarining ta'lim-tarbiyasi, kelajagi uchun yashashi kerak. Odamlar sizning to'yingizni bir kun gapiradi, undan keyin eslamaydi. Ammo qarz bo'yningizda qoladi. Afsuski, oramizda kredit yoki qarz olib to'y qilayotganlar bor. To'ydan keyin qarzni to'lash uchun oilaning bir qismi chet elga ketyapti. Ko'p o'tmay har xil gaplar tarqalyapti va yangi oila buzilyapti.

**- Dabdabali to'y qilmoqchi bo'lganlarga biron maktab yoki bog'chani ta'mirlash, jihoz olib berish kabi savobli ishlarga yo'naltirish borasida ham o'ylab ko'ryapsizlarmi?**

- Aslida savob ish qilayotganlarning bir qismi buni hech kimga aytmaydi. Savobli ishni tushunganlar, yiqqan mablag'ini mahalla ko'chasiga asfalt yotqizish yoki ko'prik qurib berishga sarflayotganlar bor. Ammo bunday kishilar barmoq bilan sanarli darajada kam. Qolganlari esa hoyu-havasga berilgan, ma'naviy qashshoq kishilardir. Masalan, oxirgi vaqtda yangi odatlar chiqqan. Ulardan biri to'ylarda kelin-kuyovning kiyimlarini ko'rgazma sifatida maxsus bezatilgan mashinada olib borishadi. Ushbu mashinalar xizmati 400-500 dollar turar ekan. Yanayam achinarlisi, Samarqand tumanidagi "talbon" to'yda bir narsaning guvohi bo'ldik. Kelin necha xil kiyimi bo'lsa, hammasini kiyib chiqib, mehmonlarga ko'rsatar ekan. Afsuski, mana shunday bema'ni odatlar ko'payib ketyapti. To'ylarda kelin tomon kuyov tomonga, kuyov tomon kelin tomonga nafaqat tilla taqinchoqlar, balki undan ham qimmatbaho sovg'alarni tarqatyapti. Lekin 1 milliard pul sarflab to'y qilayotgan fuqaroga shuning 100 millionini mahallani obod qilish yoki maktab uchun jihoz olib berishga so'rasangiz bermaydi. Aslida tushunchasi keng bo'lgan inson dabdabali to'y qilmaydi.

**- Ixcham nikoh to'yi qanday bo'lishi kerak? O'z oilangizda qanday to'y o'tkazmoqchisiz?**

- Qizlarimni uzatganman, xudoga shukr yaxshi yashashyapti. Men tomondan qilinadigan to'ylarni hovlimda kamxarj tarzda o'tkazganman. Yaqinda ukam o'g'il uylantirmoqchi. U ham 200 kishiga yaqin mehmon aytmoqchi. Shuningdek, dasturxonga tortiladigan ovqati ham bitta bo'ladi, ikki-uch xil ovqat tortilmaydi. Aslida Samarqand shahridagi to'ylarda bor-yo'g'i 20 foiz ovqat yeyiladi. Qolgani isrof bo'ladi. Shuning uchun odamlar me'yorni tushunib yetishi kerak.

**- O'zingizning nikoh to'yingiz qanday o'tgan?**

- Nikoh to'yim 1995-yilning 12-avgustida hovlimizda bo'lgan. Qishloq to'ylarida deyarli dabdabaga berilmaydi, o'sha paytda buning imkoni ham yo'q edi. Biz ZAGSga borishga bir dona "Gaz-24" mashinasini topganimizga xursand bo'lganmiz. O'ttiz yil oldingi to'ylarni ko'z oldingizga keltiring, temirdan yasalgan uzun stollar, gilamga paxta bilan kelin-kuyovning ismi yozilardi. Dasturxonda osh, non va salat bo'lardi, xolos. Deyarli hamma shunday to'y o'tkazardi. Odamlar isrofdan qo'rqardi.

**- Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur.**

**Xurshida ERNAZAROVA suhbatlashdi.**

Yonimizdagi odamlar

# Ака-ука Гриммларни ўзбекча, Афандини немисча гапиртирган олим

Жаҳоннинг таниқли ижодкорлари асарларини ўз она тилимизда ўқиб, улардан завқ оламиз. Айниқса, болалигимизда ака-ука Гриммларнинг эртакларини ўқиб, немисларнинг миллий урф-одатлари, маданияти ва қадимги фольклор қўшиқларини ўзбек тилида тинглаб улғайганмиз. Ҳар қандай асарни маромига етказиб, тилимизга ўгириб, ўқувчиларга етказиб бериш учун моҳир таржимон бўлиши керак. Ана шундай олимлар орасида истеъдодли таржимон, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети профессори Хуррам Раҳимовнинг ҳам ўз ўрни бор.

Хуррам Раҳимов 1951 йил 4 январда Жомбой туманида туғилган. У 1967 йилда ўрта мактабни битириб, Тошкент давлат чет тиллар педагогика институтининг немис тили факультетига ўқишга кирди. 1972 йилда институтни муваффақиятли тамомлаб, дастлаб Хоразм, кейинчалик Сирдарё педагогика институтларида талабаларга немис тили ва адабиётидан сабоқ берди. 1976-1979 йилларда Москва давлат чет тиллар педагогика институтининг аспирантурасида ўқиб, шу ерда номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди. Етти йил давомида Тошкент давлат чет тиллар педагогика институтида, 1987-1994 йилларда Тошкент давлат университетида доцент лавозимида ишлади.

Профессор Х.Раҳимов талабаларга таржима назарияси ва амалиёти, немис адабиёти тарихи ва немис тили услубияти каби фанлардан дарс бериш билан бирга кўп йиллардан бери бадиий асарларни таржима қилиш билан шуғулланади.

У кўплаб ўзбек ёзувчи ва шоирларининг асарларини немис тилига таржима қилди. Таржималарида муаллиф услубини сақлаб, асарларда қўлланилган ўхшатиш, метафора ва жонлантириш каби бадиий тасвир ва ифода воситалари, персонажлар нутқи, портрет ва табиат тасвирини қайта яратиш йўли билан очиб берди.

Ҳ.Раҳимов "Етти оққуш", "Етти юлдуз" каби немис халқ эртаклар тўпламларини ўзбек тилига, "Ўзбек халқ эртаклари", "Ўзбек сеҳрли эртаклари", "Самарқанд эртаклари" "Насриддин Афанди ва Мюнхаузен саргузаштлари" тўпламларини немис ва рус тилларига таржима қилди.

Шунингдек, олим Алишер Навоийнинг ғазаллари, бетакрор насрий асарларини ҳам хориж тилларига таржима қилишга ўз ҳиссасини қўшган. 2021 йилда Алишер Навоийнинг 580 йиллиги муносабати билан у таржима қилган 100 та ғазал "Қаро кўзим" номи билан юртимизда ва Германияда чоп этилди.



Олим немис тилининг сара асарларини ҳам ўзбек тилига таржима қилди. Хусусан, немис адабиётининг энг буюк эртакчилари ака-ука Гриммларнинг 100 дан ортиқ эртаклари олимнинг машаққатли меҳнати эвазига ўзбек тилига ўгирилган.

Олим илмий фаолият билан биргаликда жамоатчилик ишларини ҳам фаол олиб бормоқда. У қатор йиллардан буён Германиядаги немис-ўзбек илмий жамияти раиси, Германиядаги "Авиценна" илмий журнали бош муҳаррири, Ўзбекистон немис тили ўқитувчилари ассоциацияси раиси вазифасини бажарган. Ҳозирда Марказий Осиё немис тили ўқитувчилари ассоциациясини бошқариб келмоқда.

Бугун ўзининг 75 ёшини нишонлаётган севимли устоз, истеъдодли таржимон, профессор Хуррам Раҳимовга узоқ умр, мустаҳкам соғлик ва ижодий баркамоллик тилаймиз.

**Аҳмаджон МАВЛОНОВ, Самарқанд давлат университети доценти.**

Yangi kitob

# "TAFAKKUR BIRLA BILDI ODAMIZOD"

**Alisher Navoiy hazratlarida shunday satr bor: "Har neniki bildi odamizod, tafakkur birla bildi odamizod". Bu bejiz emas. Biz borliqni ham, dunyoni ham shuurimiz, zakovatimiz orqali anglaymiz, o'z hayotimizni ana shu tushunchalar orqali yashaymiz. Binobarin, aynan ana shu aqida bois azal-azaldan bunday tafakkur va iqtidorga ega bo'lganlar jamiyatda yetakchi sanalgan, odamlar ularning xulosalariga ergashgan.**




Olamga nisbatan dunyoqarash, umuman, inson ma'naviyati hamma davrda ham allomalar o'rtasida qizg'in bahslarga sabab bo'lgan. Hatto islom dini arkonlari o'rtasida ham e'tiqod va jamiyatga munosabat yuzasidan turlicha qarashlar bo'lgan.

Bunday qarashlarni o'rganish, tahlil qilish va shu orqali allomalar nuqtai nazarining mohiyatini aniqlash falsafaning bugungi dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy falsafada esa ana shu tadqiqotlar yo'lida SINERGETIKA degan uslub paydo bo'ldi. Uning asosiy vazifasi oddiy qarashlardagi murakkab xulosalarni anglash yoki aksincha, murakkab xulosalarni soddaroq holda anglashga intilishdir. Boshqacha aytganda, har bir xulosaning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, o'sha davr muhiti bilan o'rganishdir.

Falsafa fani bo'yicha PhD doktori Bahodir Rahmonov o'zining "Falsafiy meros sinergetikasi" risolasida aynan ana shu uslub ahamiyati va uning talablari xususida so'z yuritadi. Xususan, sinergetikada yaxlit tushunish imkoniyati, an'anaviy anglashning yangi talqinlar bilan integrallashuvi, turli falsafiy g'oyalar integrallashuvi, g'oyalar dinamikasi hamda falsafiy qarashlarga ijodiy yondashuv uslublari talablarini tadqiq etgan.

Muallif O'rta Osiyo mutafakkirlari merosi misolida sinergetik o'rganish ahamiyati haqida mulohaza yuritadi, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinoning tafakkur tarzini ochib berishga intilgan. Shuningdek, B.Rahmonov falsafa sinergetikasining allomalar merosini o'zlashtirishdagi hamda Yangi O'zbekiston yuksak ma'naviy muhitini shakllantirishdagi ahamiyatini ishonchi takliflar bilan isbotlagan.

B.Rahmonov jurnalistikada ham, ilmda, badiiy ijodda ham baravar faoliyat ko'rsatayotgan, o'zbek va tojik tilida baravar ijod qilayotgan ziyolilardan biri. Uning yangi ilmiy tadqiqoti samarasi - "Falsafiy meros sinergetikasi" kitobi ham ko'pchilikka ma'qul keladi, degan umiddamiz.

**Farmon TOSHEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 788 nusxada chop etildi. Buyurtma 10. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56
**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** A.SHERXOLOV.
**Navbatchi:** T.SIDDIQOV.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda